

**3-topshiriq.** “Ma’nodoshini top!” Berilgan soʻzlarga ma’nodosh boʻlgan soʻzlarni topib yozing.



Mayin – yoqimli, nihollar – koʻchatlar, yaproqlar – barglar, yellar – shamol, koʻklam – bahor.

**4-topshiriq.** Turnalarning koʻkda argʻimchoq solib uchishini kuzatganmisiz?

Ular qanday koʻrinishda boʻladi? Rasm ishlang.

Oʻquvchilar mustaqil ravishda rasm chizadilar.

**V.Darsni yakunlash va oʻquvchilarni baholash.**

Darsda faol qatnashgan oʻquvchilar baholab, ragʻbatlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa berish.** Sheʼrni yod oling.

### **8-mavzu: "Bir-birin kuzatar fasllar" sheʼri (Poʻlat Moʻmin)**

**Darsning maqsadi:**

**a)taʼlimiy:** oʻquvchilarni sheʼr matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, sheʼrni ifodali oʻqishni oʻrgatish.

**b)tarbiyaviy:** oʻquvchilarga tabiatni asrashni, uning boyliklaridan oqilona foydalanishni oʻrgatish, oʻquvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**c)rivojlantiruvchi:** oʻquvchilarning ifodali oʻqish koʻnikma va malakalarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish, "Klaster", "Aqliy hujum" metodi, "Kim hozirjavob", "Topib oʻqi!" taʼlimiy oʻyinlari.

**Dars jihozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

**Darsning borishi:**

### **I.Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma`naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

### **II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "Kuz " she'rini o`quvchilar yoddan aytib beradilar.

#### **"Aqliy hujum" metodi.**

1.She`r qaysi fasl haqida yozilgan? 2.Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?

3.Tabiatda qanday o`zgarishlar bo`ladi? 4.Sunbula so`zining ma`nosi nima?

#### **"Quvnoq daqiqa" mashqi.**

O`quvchilarga topishmoq aytiladi, yangi mavzuning nomi shu topishmoqning javobida yashiringan. O`quvchilar topishmoqning javobini topadilar.

Kelib-ketar bir yilda, To`rt og`ayni har xilda. **(Yil fasllari)**

### **III.Yangi mavzu bayoni.**

Rasmlar orqali suhbat uyushtiriladi. Bugungi mavzu e`lon qilinadi: **"Bir-birin kuzatar fasllar" she`ri.**

Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

**Lug`at ishi:** **Oftob** – quyosh **Mo`l** – ko`p

"Bir-birin kuzatar fasllar" she`ri o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

### **IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

#### **"Kim hozirjavob?" o`yini.**

1.Yilbobo haqida bilasizmi?

2.Zararli mikroblarni yo`qotishda qishning vazifasi qanday?

3.Qish fasli necha oy davom etadi?

4.Yomg`ir qaysi oylarda yog`adi?

5.Dehqonlar qaysi oydan boshlab dala yumushlarini boshlaydilar?

6.Quyosh qaysi oylarda Yer yuzini ko`proq qizdiradi?

7.Yilbobo farzandlarining vazifasi insoniyat uchun qanday ahamiyatga ega?

### "Klaster" metodi.


O`quvchilar yil fasllarining nomini aytadilar.



### "Topib o`qi!" mashqi.

Rasmlar asosida fasllar nomi aytiladi.Har bir faslning izohlanishini she`rdan topib o`qiydilar.

**Mashq daftar bilan ishlash. 1-topshiriq.**




**2-topshiriq.** Har bir faslga mos rasmni tanlang. Darslikda berilgan rasmlarga mos fasl nomi yoziladi. Bahor, yoz, kuz, qish.

**3-topshiriq.** “Bir-birin kuzatar fasllar” she’ridagi soʻzlarga ohangdosh soʻzlarni topib yozing. 1.Kuzatishar – uzatishar  
 2.Qizlari – izlari            3.Ushlashar – tusharlar  
 4.Uxlatib – oʻxshatib    5.Boʻyarkan – quvarkan  
 6.Oftobga – kitobga

**4-topshiriq.** Har bir faslda tabiatdagi oʻzgarishlarni yozing.

Fasllar	Tabiatdagi oʻzgarishlar
Qish	Qor yoʻgʻadi,yer muzlaydi
Bahor	Yomgʻir yoʻgʻadi,gullar ochiladi
Yoz	Havo issiq bōladi,mevalar pishadi
Kuz	Daraxtlarning bargi sarġayadi

**5-topshiriq.** 1-ustundagi soʻzlarni 2-ustundagi mos soʻzlar bilan bogʻlang.



**6-topshiriq.** “Men yoqtirgan fasl” mavzusida matn tuzing va yozing.  
 Oʻquvchilar mustaqil bajaradilar.

**7-topshiriq.** Toʻgʻri javobni belgilang.

1. Bir yilda nechta fasl bor?

A.5 ta    **B.4 ta**    D.3 ta    E. 2 ta

2. Yoz fasliga qaysi oylar kiradi?

A. mart, aprel, may

B. dekabr, yanvar, fevral

**D.** iyun, iyul, avgust

E. sentabr, oktabr, noyabr

3. *Daraxtlarga taqar ekan, Turfa-turfa chechaklar.*

*Shamol mayin-mayin esib, Aytar qo`shiq, ertaklar.*

She`rdan olingan ushbu parchada qaysi fasl haqida so`z bormoqda?

A. kuz      B. qish      **D.** bahor      E. yoz

**V. Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

**Savol-javob o`tkaziladi.**

-Yil fasllari haqida qanday ma`lumotlarni bilasiz?

- Sizga qaysi fasl yoqadi?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifa berish.**

She`rni ifodali o`qib, mazmunini so`zlab bering.